
ANNOTATSIYA

“O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonunning mazmun-mohiyatini tushuntirishga qaratilgan

ANNOTATSIYA

Prezident tomonidan imzolangan Qonun (*O‘RQ-899-son, 19.01.2024-y.*) bilan bir qator kodekslarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Jumladan, **Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga** kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, quyidagilarga nisbatan **javobgarlik belgilandi**:

– Mobil qurilmaning xalqaro o‘ziga xos identifikatsiya kodini qonuniy ishlab chiqaruvchining ruxsatisiz o‘zgartirish, xuddi shuningdek ushbu maqsadda maxsus dasturlarni ishlab chiqish, tarqatish yoki ulardan foydalanish **BHMning 15 baravaridan 20 baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Bunda huquqbuzarlik sodir etish quroli **musodara qilinadi**.

– Abonent qurilmasining identifikatsiyalash modulini qonuniy ishlab chiqaruvchining yoki uning qonuniy egasining ruxsatisiz o‘zgartirish yoki uning nusxasini yaratish huquqbuzarlik sodir etish qurolini musodara qilib, **BHMning 20 baravarigacha miqdorda jarima** solishga sabab bo‘ladi.

– Kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o‘tkazish yoki ayirboshlash, litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish **15 sutkagacha ma‘muriy qamoqqa olishga** yoki ma‘muriy qamoq qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga **BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda jarima** solishga sabab bo‘ladi.

Bunda kripto-aktivlarni hamda mazkur **huquqbuzarliklarni sodir etish qurollari musodara qilinadi**.

– Kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish mansabdor shaxslarga **BHMning 30 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda** jarima solishga sabab bo‘ladi.

– Mayning faoliyatini belgilangan tartibni buzgan holda amalga oshirish, mazkur huquqbuzarlikni sodir etish qurollarini musodara qilib, **5 sutkagacha** ma‘muriy qamoqqa olishga yoki ma‘muriy qamoq qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga **BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda jarima** solishga sabab bo‘ladi.

– Anonim kripto-aktivlar mayningi bilan shug‘ullanish, kripto-aktivlarni hamda huquqbuzarlik sodir etish qurollarini musodara qilib, mansabdor shaxslarga **BHMning 30 baravaridan 40 baravarigacha miqdorda jarima** solishga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, **Jinoyat kodeksga** kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, quyidagilarga nisbatan **javobgarlik kuchaytirildi**:

“Tovlamachilik, ya‘ni jabrlanuvchiga yoki uning yaqin kishilariga zo‘rluk ishlatish, mulkiga shikast yetkazish yoki uni nobud qilish **yoxud jabrlanuvchining axborot resursini yo‘q qilish, o‘zgartirish, egallab olish yoki to‘sib qo‘yish** yoki jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlarni oshkor qilish, uni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bilan qo‘rqitib o‘zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo‘sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o‘zining mulkini yoki mulkka bo‘lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo‘yish uchun jinoiy javobgarlik belgilandi.

Yangi qo‘shimcha kiritildi:

Kripto-aktivlarni qonunga xilof ravishda olish, o'tkazish yoki ayirboshlash, belgilangan tartibda litsenziya olmasdan kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari faoliyatini amalga oshirish yoxud kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlari tomonidan anonim kripto-aktivlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining **100 baravarigacha miqdorda jarima** yoki **2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari** yoxud **1 yilgacha ozodlikni cheklash** yoki **1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.**

Umidjon Mexmonaliyev

Jinoyat ishlari bo'yicha

Rishton tuman sudining raisi

2024-02-29 15:52:33